O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI
RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

Boshlang‘ich kasbiy ta’lim darajasi

Umumta’lim fan



Geografiya fanidan namunaviy o‘quv dasturi

Toshkent-2025

Mazkur umumta’lim fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etildi.

Tuzuvchilar:

Shayxontohur tuman politexnikumi geografiya fani o‘qituvchisi.	Shavkatova Dilnoza Iskandar qizi
Chilonzor 2-son politexnikumi geografiya fani o‘qituvchisi.	Mamayusupova Fazilat Ro‘ziqul qizi
Professional ta’limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi.	Sidiqov Elyorxon Ergashxonovich

KASBIY TA’LIM BITIRUVCHILARIGA GEOGRAFIYA FANIDAN QO‘YILADIGAN TALABLAR

ILMIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYASI

Quyosh sistemasining tuzilishi, yerning shakli va harakatlari, ularning geografik oqibatlarini tavsiflaydi;

- yer po‘sti, mantiya va yadro tuzilishining asosiy xususiyatlarini tushunadi;
- litosferaning tektonik plitalardan tashkil topganligi va plitalar harakatlarining sabablari hamda oqibatlari, zilzila va vulqon otilishlarini keltirib chiqaradigan omillarni tushunadi;
- minerallar, tog‘ jinslari, ularning asosiy turlarini ajratadi;
- foydali qazilmalar tarqalishidagi geologik va tabiiy geografik qonuniyatlarni tushunadi;
- relyef shakllari va ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunadi;
- yer usti va yer osti suvlarining paydo bo‘lishi, manbalari va xususiyatlarini biladi, ulardan oqilona foydalanishning ahamiyatini anglaydi;
- dunyo okeani va uning qismlarining tuzilishi, ularning sayyoramiz tabiatidagi ahamiyatini tavsiflaydi;
- gidrotexnik inshootlarning mohiyati va turlarini tavsiflaydi, ularning xo‘jalikdagi ahamiyati va tabiatga ta’sirini tushunadi;
- atmosferaning tarkibi va tuzilishi, sayyoramiz hayotidagi o‘rnini tavsiflaydi;
- yer yuzida iqlimning xilma-xilligini keltirib chiqaruvchi omillarni tushunadi;
- global iqlim o‘zgarishlariga insonning ta’sirini anglaydi;
- yer yuzida mavjud asosiy tabiat zonalarini tavsiflaydi, o‘zaro ajratadi va taqqoslaydi;
- geografik o‘rin, iqlim va relyefning yer yuzi tabiati (geotizimlar) xilma-xilligiga ta’sirini tushunadi, misollar bilan izohlaydi;
- geografik qobiqning asosiy qonuniyatlari – bir butunlik, modda va energiya almashinuvi, ritmiklik, zonallik, azonallik, balandlik mintaqalanishini tushunadi;
- yer yuzi tabiatining vaqt davomida o‘zgarishi va rivojlanishini, uning sabablarini anglaydi;
- yer yuzining materiklarga bo‘linishini, turli materiklar tabiatining asosiy xususiyatlarini tavsiflaydi, ularning hududiy xususiyatlarini o‘zaro taqqoslaydi;
- O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslariga tavsif beradi;
- O‘zbekiston tabiati tekisliklardan tog‘larga tomon o‘zgarib borish qonuniyatini va uning ahamiyatini tushunadi;

- aholining zamonaviy bosqichdagi tabiiy va migratsion harakatining mohiyati va ularga ta’sir etuvchi omillarni tushunadi;

- jahon va O‘zbekistonda urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining mohiyatini tushunadi;

- aholi zichligi va joylashuviga ta’sir etuvchi geografik omillarni, dunyodagi yirik davlatlar, O‘zbekiston aholisining o‘sishi, yosh-jins tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi;

- insoniyatning asosiy irqlarini farqlaydi, ularning paydo bo‘lishini geografik muhit bilan bog‘laydi va hududiy tarqalishini tavsiflaydi;

- O‘zbekiston, qo‘shni davlatlar, jahonning yirik davlatlari aholisining milliy va diniy tarkibini tavsiflaydi;

- tabiiy resurslarning ahamiyatini tushunadi va asosiy turlarini ajratadi;

-tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarning dolzarb ekologik muammolarining mohiyati, sabab va oqibatlarini tushunadi;

- O‘zbekiston va qo‘shni mamlakatlarda yagona ekologik muhit va trans chegaraviy ekologik muammolar mavjudligini tushunadi;

-O‘zbekistondagi tabiatdan foydalanish bilan bog‘liq muammolar – suv resurslarning tanqisligi, yerlarning sho‘rlanishi, cho‘llashishning mohiyati, sabablari va ularning oldini olish choralarini tavsiflaydi;

- Orol va Orolbo‘yidagi ekologik muammolarning dolzarbligini tushunadi;

- O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida amalga oshirayotgan islohotlarning mamlakat, alohida hududlari, jumladan o‘zi yashaydigan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini tushunadi;

- ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish omillarini tushunadi, alohida tarmoq yoki korxonalar misolida ularni izohlaydi;

- jahon xo‘jaligi va milliy iqtisodiyot tarmoqlar tarkibini, turli xo‘jalik tarmoqlarining ahamiyatini tushunadi;

- dunyoning yirik mintaqa va davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi va ixtisoslashuvini tavsiflaydi va o‘zaro taqqoslaydi;

- O‘zbekiston, uning hududlari sanoati va qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi;

- dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi;

- Markaziy Osiyo va O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rnini tavsiflaydi;

- xalqaro geosiyosiy munosabatlarning hozirgi zamondagi xususiyatlari, ularning muammoli jihatlari va O‘zbekiston uchun ahamiyatini tushunadi;

- O‘zbekiston faol hamkorlik qiladigan xalqaro tashkilot va uyushmalar faoliyatining mohiyatini tushunadi;

- insoniyatning global muammolari, ularning shakllanish sabablari, dunyo va O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri va ularni yechish borasidagi harakatlar haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

AMALIY KOMPETENSIYA

Globus, dunyo hamda O‘zbekistonning tabiiy va siyosiy xaritalaridan yirik geografik obyektlarni ko‘rsatadi;

- tabiiy va siyosiy xaritalardagi yirik geografik obyektlarni yozuvsiz xaritaga tushiradi;

- globus hamda xaritalarning masshtabi yordamida masofalar va geografik obyektlarning o‘lchamlarini hisoblaydi;

- globus va geografik xaritalar daraja to‘ri (meridian va parallellar) dan geografik obyektlarning joylashgan o‘rnini aniqlaydi;

- geografik xaritalar yordamida hududlarning tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumotlarni tahlil qiladi;

- geografik atlas va xaritalardan sayohatlarda foydalanadi;

- ufq tomonlarini kompas va mahalliy belgilarga qarab aniqlaydi;

- havo haroratini o‘lchashda termometrdan to‘g‘ri foydalanadi;

- tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning turli ko‘rsatkichlarini (harorat, yog‘in miqdori, aholi soni va hokazo) tasvirlovchi grafiklarni tahlil qiladi;

- berilgan ma’lumotlardan foydalanib, jadval, grafik va diagrammalarni tuzadi;

- tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar doir masala va amaliy topshiriqlarni mustaqil yechadi;

- materiklar, qit’alar, okeanlar, davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi va O‘zbekistondagi yirik shaharlar, relyef shakllari, cho‘llar, suv obyektlari va foydali qazilma konlari va boshqa geografik obyektlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.

3.3. KASBIY TA’LIM O‘QUVCHILARIGA GEOGRAFIYA FANIDAN QO‘YILADIGAN TALABLAR

Kodi	ILMIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYASI
ISK1.	Yerning tuzilishi va tektonik harakatlar
ISK2.	Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik
ISK3.	Gidrosfera va suv resurslari
ISK4.	Iqlim va atmosfera hodisalari

ISK5.	Yer yuzidagi geotizimlar (landshaftlar)
ISK6.	Aholi va demografik jarayonlar
ISK7.	Inson va tabiatning o‘zaro munosabatlari
ISK8.	Inson xo‘jalik faoliyati
ISK9.	Geosiyosiy tizim va jarayonlar.

AMALIY KOMPETENSIYA	
AK1.	Globus va geografik xaritalardan foydalanish.
AK2.	Geografik hodisalarni kuzatish va geografiyaga oid masalalarni yechish.
AK3.	Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash.
AK4.	Tabiatni muhofaza qilish va ekologik savodxonlik.
ILMIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYASI	
ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik.	10.1.2.1. Dunyo tabiiy resurslarining hududiy tarqalishi joyning geologik tuzilishiga bog‘liq ekanligini biladi. 10.1.2.2. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, oltin singari foydali qazilmalarning zaxiralari va hududiy tarqalishiga oid ma’lumotlarni tushunadi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar.	10.1.6.1. Aholining yosh-jins va milliy tarkibini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar, ularning aholi ko‘payishiga bog‘liqligini tushunadi. 10.1.6.2. Jahonda urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining mohiyatini tushunadi. 10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi.
ISK7. Inson va tabiatning o‘zaro munosabatlari.	10.1.7.1. Tabiatdan foydalanishning oqilona va nooqilona shakllarini farqlaydi. 10.1.7.2. Dolzarb global ekologik muammolarning mohiyati, sabablari, oqibatlari, ularning yechimini topish va ta’minlash borasida jahon hamjamiyatining harakat choralarini tushunadi.

ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati.	10.1.8.1. Jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi. 10.1.8.2. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan tasniflanishini tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.
ISK9. Geosiyosiy tizim va jarayonlar.	10.1.9.1. Dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi. 10.1.9.2. Jahonning siyosiy xaritasining o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi.
AMALIY KOMPETENSIYA	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.
AK2. Geografik hodisalarni kuzatish va geografiyaga oid masalalarni yechish	10.2.2.1. Mamlakatlar aholisi va urbanizatsiyaga doir geografik masalalarni yechadi.
AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash	10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi; 10.2.3.2. Davlatlar, shaharlar va boshqa geografik obyektlarning nomlari ma’lum mazmun-mohiyatga ega ekanligini, joy nomlarining o‘zgaruvchanligini tushunadi.
ILMIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYASI	
ISK1. Yerning tuzilishi va tektonik harakatlar	11.1.1.1. Geoxronologik bosqichlarning mohiyatini tushunadi. 11.1.1.2. Tabiiy geografik jarayonlar ta’sirida relyef o‘zgarishining mohiyatini tushunadi.
ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik	11.1.2.1. Yerning ichki tuzilishini tushunadi va zilzilaning mohiyatini anglaydi.

	11.1.2.2. Dunyoning turli subregionlaridagi asosiy foydali qazilmalarning tarqalishida tabiiy sharoitning rolini tushunadi.
ISK5. Yer yuzidagi geotizimlar (landshaftlar)	11.1.5.1. Yer yuzi tabiatiga fazoviy (tashqi) va sayyoraviy (ichki) omillarning ta’sirini tushunadi; 11.1.5.2. Geografik qobiqning asosiy qonuniyatlari – bir butunlik, modda va energiya almashinuvi, ritmiklik, zonallik, azonallik, balandlik mintaqalanishini tushunadi; 11.1.5.3. Geotizimlarning mohiyati, tuzilishi va iyerarxik xususiyatini tushunadi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar.	11.1.6.1. Aholining zamonaviy bosqichdagi tabiiy va migratsion harakatiga ta’sir etuvchi omillarni, demografik o‘tish va xalqaro migratsiya jarayonlarining mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tushunadi; 11.1.6.2. Urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning globallashib ketayotganligini tushunadi.
ISK7. Inson va tabiatning o‘zaro munosabatlari	11.1.7.1. Inson va tabiat munosabatlari tarixan rivojlanib borganligi va bunda ishlab chiqarish kuchlarining o‘sib borishi asosiy omil ekanligini tushunadi. 11.1.7.2. Antropogen landshaft, madaniy landshaft va buzilgan yerlarning mohiyati, shakllanishi va jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushunadi. 11.1.7.3. O‘zbekiston va qo‘shni Markaziy Osiyo mamlakatlarida yagona ekologik muhit va transchegaraviy ekologik muammolar mavjudligini tushunadi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	11.1.8.1. Insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan globallashuv.
ISK9. Geosiyosiy tizim va jarayonlar	11.1.9.1. Xalqaro geosiyosiy munosabatlarning hozirgi zamondagi xususiyatlari, ularning muammoli jihatlari va O‘zbekiston uchun ahamiyatini tushunadi; 11.1.9.2. O‘zbekiston faol hamkorlik qiladigan xalqaro tashkilot va uyushmalar – Birlashgan Millatlar tashkiloti, Shanxay Hamkorlik tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi, Turkiy davlatlar kengashi, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi faoliyatining mohiyatini tushunadi.

AMALIY KOMPETENSIYA	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	11.2.1.1. Tabiiy va mavzuli xaritalardan foydalanib Yer yuzi tabiatidagi tafovutlarini izohlaydi. 11.2.1.2. Siyosiy xaritadan geosiyosiy voqea va jarayonlarni tushuntirishda foydalanadi. 11.2.1.3. Aholi xaritalardan demografik va migratsion jarayonlarni tavsiflashda foydalanadi.
AK2. Geografik hodisalarni kuzatish va geografiyaga oid masalalarni yechish	11.2.2.1. Turli axborot manbalardan foydalanib jahon va O‘zbekistondagi tabiiy-ekologik, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqea hamda jarayonlarni kuzatadi, o‘zaro taqqoslaydi. 11.2.2.2. Tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaga oid masalalarni yechadi.
AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash.	11.2.3.1. Dunyoning yirik mintaqalari va subregionlari, xalqaro tashkilot va integratsion uyushmalarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.
AK4. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik savodxonlik.	11.2.4.1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning turlarini tavsiflaydi; 11.2.4.2. Geoekologik muammolarning vujudga kelishiga hududlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitining ta’sirini tushunadi va ularni hal qilishda geografik bilimlarning ahamiyatini anglaydi.

GEOGRAFIYA
(JAHON IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI)
I BO‘LIM. JAHONNING UMUMIY TAVSIFI
(28 soat)
I BOB. JAHON SIYOSIY XARITASI
(6 soat)

Jahonning siyosiy xaritasi. Jahon siyosiy xaritasi tushunchasi. Hozirgi vaqtdagi jahon siyosiy xaritasidagi davlatlar soni, ularning maydoni bo‘yicha eng yirik va eng kichiklari. Davlatlarning geografik o‘rni jihatidan tasniflanishi – orol, yarimorol, dengiz bo‘yi, ichki kontinental mamlakatlar. Jahon siyosiy xaritasidagi oxirgi o‘zgarishlar.

Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo‘yicha tasnifi.

Mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jihatidan tasniflash mezonlari. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar, ularning asosiy guruhlari. O‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar.

Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi. Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi boʻyicha tasniflanishi. Respublika va monarxiya davlatlari, ularning tiplari. Unitar va federativ davlatlar.

Amaliy mashgʻulot (Jahon siyosiy xaritasi bilan ishlash). Oʻquvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy koʻnikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: jahon siyosiy xaritasi, mamlakatlarning boshqaruv shakllari va davlat tuzilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga oid xarita, jadval va grafiklar bilan ishlash.

II BOB. JAHON TABIIY RESURSLARI
(4 soat)

Mineral resurslar geografiyasi. Dunyoning yirik yoqilgʻi havzalari. Qora va rangli (ayniqsa, qimmatbaho) metallar eng koʻp tarqalgan hududlar. Asosiy foydali qazilmalar (neft, tabiiy gaz, koʻmir, temir ruda)ning eng katta zaxiralariga ega boʻlgan davlatlar. Mineral resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi va uni hisoblash usullari. Jahon mamlakatlarining mineral resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi jihatidan guruhlashtirilishi.

Tugamaydigan va tiklanadigan tabiiy resurslar geografiyasi.

Agroiqlim, yer, suv, oʻrmon, biologik, geotermal resurslarning geografiyasi.

Loyiha darsi. Global ekologik muammolar (“issiqxona samarasi”, ozon “tuynugi”, choʻllashish va oʻrmonsizlashish, dunyo okeani sathining koʻtarilishi, ichimlik suvi tanqisligi, bioxilma-xillikni saqlash)ning mohiyati va ularni bartaraf etish yoʻllari haqida oʻquvchilar tomonidan tayyorlangan taqdimotlarni muhokama qilish.

Nazorat ishi.

III BOB. JAHON AHOLISI
(12 soat)

Dunyo aholisining soni, oʻsishi va joylashishi. Jahon aholisining soni va oʻsishi. Demografik “portlash” va uning sabablari. Jahon aholisi joylashuvining asosiy omil va xususiyatlari. Aholi eng zich va eng siyrak joylashgan hududlar. Insoniyat tomonidan yangi hududlarni oʻzlashtirish. Materiklar va qit’alar aholisining soni. Aholisi eng koʻp davlatlar.

Jahon aholisining yosh-jins va irqiy tarkibi. Jahon aholisining jinsiy tarkibi. Jahon aholisining yosh boʻyicha tarkibi. Yosh-jins piramidalari. Dunyo aholisining irqiy tarkibi. Asosiy va aralash irqlar.

Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi. Etnos tushunchasi. Til oilalari va guruhlari, ularning geografiyasi. Jahondagi eng yirik til oilalari, guruhlari va millatlar. Jahondagi yirik dinlar va ularning geografiyasi.

Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi. Jahonda shahar aholisi va uning o‘sishi. Urbanizatsiya tushunchasi, urbanizatsiya darajasiga ko‘ra mamlakatlarning toifalarga bo‘linishi. Monoshahar va “o‘lik” shaharlar. Aglomeratsiya va megalopolislar.

Amaliy mashg‘ulot (Aholi harakati, tarkibi va joylashuviga oid masalalar). O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: aholi ko‘payishi, zichligi va tarkibi, mamlakatlarning urbanizatsiya darajasiga oid masalalarni yechish.

IV BOB. JAHON XO‘JALIGI GEOGRAFIYASI
(6 soat)

Jahon xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti. Jahon xo‘jaligi tushunchasi. Xalqaro mehnat taqsimoti haqida tushuncha. Xalqaro ixtisoslashuv va uning omillari. Jahon xo‘jaligi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi va to‘rtlamchi sektorlardan iborat ekanligi. Jahon iqtisodiyoti sektorlar tarkibi, uning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi farqlanishi. Fan-texnika inqilobi tushunchasi. Fan-texnika inqilobining jahon xo‘jaligiga ta’siri.

Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari. Jahon xo‘jaligining geografik “modeli”ning ko‘p markazlilik xususiyati. Hozirgi zamonda tez o‘sib borayotgan iqtisodiy markaz va qutblar. Xalqaro va regional iqtisodiy integratsiya jarayonlari. Transmilliy korporatsiyalar.

Amaliy mashg‘ulot (Jahon xo‘jaligi va uning tarkibini o‘rganish). O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: jahon xo‘jaligi, xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvda mamlakatlarning ishtirokiga oid xarita, jadval va grafiklar bilan ishlash.

Nazorat ishi.

Jahon energetikasi geografiyasi. Yoqilg‘i-energetika sanoatining tarkibi. Jahon yoqilg‘i-energetika balansi. Neft va gaz zaxiralari joylashgan asosiy hududlar. Neft va gazni qazib oladigan va eksport qiladigan asosiy davlatlar. Ko‘mir sanoati. Ko‘mir qazib oladigan yirik davlatlar. Elektr energetika va uning asosiy tarmoqlari: issiqlik energetikasi, gidroenergetika, atom energetikasi, noan’anaviy energiya resurslari (geotermal, shamol, to‘lqin, quyosh, qalqish energetikasi).

Amaliy mashg‘ulot (Jahon sanoati geografiyasi va uning o‘zgarib borishini o‘rganish). O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: jahon sanoatining tarmoq va hududiy tarkibiga oid jadval, diagramma va grafiklarni tahlil qilish.

Jahon qishloq xo‘jaligi geografiyasi. Don ekinlari. Bug‘doy, sholi va makkajo‘xori ekiladigan asosiy rayonlar. Moyli ekinlar, ildizmevali ekinlar. Quvvat beruvchi, tolali o‘simliklar. Chorvachilik, asosiy tarmoqlari: qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, parrandachilik. Baliqchilik.

Jahon transporti geografiyasi. Transport moddiy ishlab chiqarishning uchinchi yetakchi tarmog‘i. Jahon transport geografiyasi tizimidagi tafovutlar. Transport to‘ri rivojlangan mamlakatlar. Avtomobil va temir yo‘llarning uzunligi va zichligi. Suv transporti: dengiz transporti, dengiz savdo floti.

Jahon portlari. Dengiz kanallari, bo‘g‘izlari. Ichki suv transporti. Quvur transporti. Havo transporti. Aeroportlar.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi. Xalqaro iqtisodiy aloqalar va ularning asosiy turlari. Xalqaro savdoning tovar va hududiy tarkibi, ularning zamonaviy sharoitda o‘zgarib borishi. Xalqaro turizm geografiyasi.

Nazorat ishi.

Umumlashtiruvchi dars. O‘tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

II BO‘LIM. JAHONNING REGIONAL TAVSIFI
(52 soat)
I BOB. YEVROPA MAMLAKATLARI
(10 soat)

Yevropaning geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi. Hududi, chegaralari, geografik o‘rni. Siyosiy xaritasi va undagi so‘nggi o‘zgarishlar. Subregionlarga bo‘linishi (Shimoliy Yevropa, G‘arbiy, yoki O‘rta Yevropa, Janubiy Yevropa va Sharqiy Yevropa).

Amaliy mashg‘ulot (Yevropa siyosiy xaritasini o‘rganish). O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: Yevropa siyosiy xaritasi bilan ishlash.

Germaniya Federativ Respublikasi. Hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi. Hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari.

Fransiya Respublikasi. Hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari.

Nazorat ishi.

Italiya Respublikasi. Hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari.

Rossiya Federatsiyasi. Hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi.

Rossiya Federatsiyasi xo‘jaligi. Xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari, iqtisodiy rayonlari.

Umumlashtiruvchi dars. O‘tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

II BOB. OSIYO MAMLAKATLARI
(20 soat)

Osiyo geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi. Hududi, chegaralari, geografik o‘rni. Siyosiy xaritasining shakllanishi. Qit’a mamlakatlarining boshqarish shakli va davlat tuzilishi. Subregionlarga bo‘linishi (Janubi-G‘arbiy Osiyo, Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo).

Amaliy mashg‘ulot (Osiyo siyosiy xaritasini o‘rganish). O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: Osiyo siyosiy xaritasi bilan ishlash.

Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi. Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va jahon iqtisodiyotidagi o‘rni jihatidan guruhlashtirish.

Qozog‘iston Respublikasi. Qozog‘istonning hududiy chegaralari, aholisi, tabiiy sharoitiga, tabiiy resurslariga xo‘jalik va siyosiy jihatdan baho berish. Xo‘jaligiga umumiy tavsif, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti.

Qirg‘iziston Respublikasi. Qirg‘izistonning hududiy chegaralari, aholisi, tabiiy sharoitiga, tabiiy resurslariga xo‘jalik va siyosiy jihatdan baho berish. Xo‘jaligiga umumiy tavsif, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti.

Turkmaniston Respublikasi. Turkmanistonning hududiy chegaralari, aholisi, tabiiy sharoitiga, tabiiy resurslariga xo‘jalik va siyosiy jihatdan baho berish. Xo‘jaligiga umumiy tavsif, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti.

Tojikiston Respublikasi. Tojikistonning hududiy chegaralari, aholisi, tabiiy sharoitiga, tabiiy resurslariga xo‘jalik va siyosiy jihatdan baho berish. Xo‘jaligiga umumiy tavsif, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti.

Nazorat ishi.

Amaliy mashg‘ulot (Markaziy Osiyo mamlakatlarining qiyosiy geografik tavsifi). O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: Markaziy Osiyo mamlakatlariga qiyosiy geografik tavsifni jadval ko‘rinishida tuzish, mintaqa davlatlarining umumiy, farqli va o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyatlarini aniqlash.

Turkiya Respublikasi. Hududi, tabiiy sharoiti va resurslariga xo‘jalik jihatdan tavsif. Aholisi, xo‘jaligi. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Amaliy mashg‘ulot (Eron, Afg‘oniston va Pokistonning qiyosiy geografik tavsif). O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: Eron, Afg‘oniston, Pokiston Islom respublikalarini qiyosiy geografik yondashuv orqali o‘rganish. Uchta davlatning iqtisodiy geografik o‘rni, tabiiy resurs salohiyati va iqtisodiyotining ustunliklari va kuchsiz jihatlarini taqqoslash. Afg‘onistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolari.

Xitoy Xalq Respublikasi. Maydoni, chegaralari, geografik o‘rni. Tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, demografik siyosati.

Xitoy iqtisodiyoti va iqtisodiy rayonlari. Xo‘jaligi, sanoati va qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari. Iqtisodiy zonalari (Sharqiy, markaziy, g‘arbiy).

Koreya Respublikasi. Maydoni, chegaralari, geografik o‘rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi va uning ko‘rsatkichlari. Xo‘jaligi. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo‘jaligi. Transporti.

Yaponiya. Maydoni, chegaralari, geografik o‘rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi va uning ko‘rsatkichlari. Xo‘jaligi. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo‘jaligi. Transporti. Iqtisodiyotidagi ichki tafovutlari.

Nazorat ishi.

Hindiston Respublikasi. Maydoni, chegaralari, geografik o‘rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi. Xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, iqtisodiyotidagi ichki tafovutlari.

Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari. Hududi, chegaralari, geografik o‘rni. Siyosiy tuzumining o‘ziga xosligi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Yoqilg‘i-energetika resurslari va ularning mintaqa davlatlari xo‘jaligi rivojlanishidagi ahamiyati. Aholisi. Sanoati va qishloq xo‘jaligining xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlari.

Umumlashtiruvchi dars. O‘tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

III BOB. AFRIKA, AVSTRALIYA VA OKEANIYA, AMERIKA MAMLAKATLARI
(22 soat)

Afrika geografik o‘rni, siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari. Maydoni, chegaralari, geografik o‘rni. Siyosiy xaritasi shakllanishidagi asosiy bosqichlar va o‘ziga xos xususiyatlari. Afrikaning hozirgi siyosiy xaritasi. Afrika subregionlari.

Tabiiy sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari, tabiiy boyliklari: mineral, er, suv, biologik, rekreatsiya.

Afrika mamlakatlari aholisi va xo‘jaligi. Afrika aholisining soni, o‘sishi, joylashishi, tarkibi. Urbanizatsiya darajasi va Shaharlari. Afrikaning dunyo xo‘jaligida tutgan o‘rni. Afrika mamlakatlarida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va joylashuvining o‘ziga xosligi. Afrika mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan 3 ta iqtisodiy mintaqaga bo‘linishi: JAR, O‘rta dengiz bo‘yi mamlakatlar va Tropik Afrika.

Janubiy Afrika Respublikasi. Hududi, chegaralari, geografik o‘rni. Davlat tuzumi. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. Aholisi. Xo‘jaligining xalqaro ixtisoslashgan sohalari.

Nigeriya Federativ Respublikasi. Geografik o‘rni. Davlat tuzumi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi. Xo‘jaligining xalqaro ixtisoslashgan sohalari. Ichki tafovutlar.

Misr Arab Respublikasi. Geografik o‘rni. Davlat tuzumi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi. Xo‘jaligining xalqaro ixtisoslashgan sohalari. Ichki tafovutlar.

Amaliy mashg‘ulot (Afrikaning siyosiy xaritasi, tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitini o‘rganish). O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: Afrika mamlakatlarining ixtisoslashuvi, jahon xo‘jaligidagi o‘rni va asosiy tarmoqlariga oid xarita, jadval va grafiklar bilan ishlash.

Nazorat ishi.

Avstraliya Ittifoqi. Avstraliya Ittifoqi. Hududi, chegaralari, geografik o‘rni. Siyosiy tizimi. Tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari. Aholisi. Xo‘jalik rivojlanishining asosiy xususiyatlari. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo‘jaligi. Chorvachilik.

Amerikaning siyosiy xaritasi. Amerika qit’asining geografik o‘rni. Siyosiy xaritasi va uning shakllanishi. Qit’aning Shimoliy va Lotin Amerika mintaqalariga bo‘linishi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari. Maydoni, chegaralari, geografik joylashishining o‘ziga xos xususiyatlari. Tabiiy sharoiti va resurslari. Urbanizatsiya darajasi, shaharlari.

AQSH xo‘jaligi va iqtisodiy rayonlari. Sanoatining asosiy tarmoqlari.

Qishloq xo‘jaligi. Transporti va transport magistrallari. AQSH regionlari.

Kanada. Maydoni, chegaralari, geografik joylashishi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi joylashishidagi tafovutlar. Sanoati va qishloq xo‘jaligi. Ichki tafovutlar

Braziliya. Maydoni, chegaralari, geografik joylashishi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi joylashishidagi tafovutlar. Sanoati va qishloq xo‘jaligi. Ichki tafovutlar.

Nazorat ishi.

Umumlashtiruvchi dars. O‘tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

Mavzuiy rejalashtirish

T/r	Bo‘lim va boblar nomi	Jami	Soatlar taqsimoti	
			Nazariy	Amaliy
1.	Jahonning siyosiy xaritasi	6	4	2
2.	Jahon tabiiy resurslari	4	2	2
3.	Jahon aholisi	12	6	6
4.	Jahon xo‘jaligi geografiyasi	6	4	2
5.	Yevropa mamlakatlari	10	6	4
6.	Osiyo mamlakatlari	20	14	6
7.	Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari	22	16	6
	Jami:	**80**	**52**	**28**